



BOG'LARDA MEVALI DARAXTLARNI YETISHTIRISH BO'YICHA AGROTEKNIK TADBIRLARNING O'RNI

To'raqulova Ozoda Mamarayim qizi
Ergashov Azizbek Ilashboy o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8421615>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-October 2023 yil
Ma'qullandi: 04- October 2023 yil
Nashr qilindi: 09- October 2023 yil

KEY WORDS

Kuzgi, qishki o'g'itlash, sug'orish, agroteknik, tuproq strukturasi, unumdorlik, shudgorlash, tinim davri, bog'dorchilik, uzumchilik.

ABSTRACT

maqolada mevali bog'larda mavsumiy amalga oshirilishi kerak bo'lgan eng muhim agroteknik tadbirlar muddati bajarilish tartibi va uning ahamiyati xususida mulohaza yuritilgan. Agroteknik tadbirlar bajarilishi xalq bog'dorchiligida kuzatuv va sinovlar asosida ortirilgan merosga va olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari xulosalariga asoslanib yoritilgan. Mevali bog'lardan kuz va qish mavsumida amalga oshirilishi muhim bo'lgan agroteknik tadbirlar ketma-ketligi, amalga oshirish texnologiyalari, hamda ahamiyati xususida atroflicha ilmiy-amaliy ma'lumotlar berilgan. Kuzgi-qishgi agroteknik tadbirlardan bog'larda ertalari sug'orish masalasi va uning zaruriyati alohida yoritilgan. Ish yuzasidan muhim xulosa takliflar bayon etilgan.

Respublikamizda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish bilan etishtiriladigan mahsulotni eksport qilishga qo'yilgan sifat talablariga Organik va Global G.A.P. xalqaro standartlari talablariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish, tartibiga solish va muvofiqlashtirish tizimlarini rivojlantirish, bog'dorchilik mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, eksport geografiasini yanada kengaytirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanish maqsadida tomarqa, dehqon, fermer xo'jaliklari va mevachilik – uzumchiligi klasterlari orasidagi xamkorlikni ilmiy asoslangan tarzda shakllantirishni taqazo etmoqda [1,2].

Mevali bog'lardan yuqori sifatli hosil etishtirib olishga erishish uchun mamlakatimiz geografik o'rni turli meva turiga mos qulay tuproq iqlimli agro hududlarga bo'linadi. Markaziy Osiyoda mevachilik va uzumchilikning shakllanishi o'zining ko'p asrlik rivojlanish tarixiga ega bo'lib parvarishlashning mukammal agroteknik tadbirlari tizimi yaratilgan. Mevachilik uzumchilikdagi har bir parvarishlash usuli yil fasllari va dehqon tavqimi oylariga qarab turlicha bo'lishini talab qiladi.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llaniladigan metodlar

Aslida biz mevali bog'larning vegetatsiya davrida, erta bahor kurtaklar uyg'ona boshlashidan kech kuzgi barg to'kilish davrigacha bo'lgan oraliqdagi parvarishiga ko'proq e'tibor qaratamiz. Ammo bog'lardagi tinim

davri, kech kuzdan erta bahor kurtaklar uyg'ona boshlashigacha bo'lgan oraliqda, ya'ni kuz-qish mavsumida ham vegetatsiya davridagidan kam bo'lmagan o'ziga xos muhim agrotexnik tadbirlar amalga oshiriladi. Kuz kelishi bilan sovuq izg'irinli kunlargacha bog'lardagi barcha hosil deyarli yig'ishtirib olinadi. Kuzgi tadbirlar asosan mezon oyi (21.09-21.10) dan boshlanadi. Bu oyda tok va anordan boshqa barcha hosili yig'ishtirib olingan mevali bog'lar mezon suvi bilan qondirib sug'oriladi [3, 4]. Shu o'rinda mezon oyining o'ziga xos jihatlari xususiga to'xtalib aytish mumkinki oy boshida kuzgi kecha va kunduzning tengligi sodir bo'lib kunduz kunlar harorati asta-sekin pasayib, kechalari sezilarli salqinlashib boradi. Eng karakterlisi havo namligi nisbatan oshib erta tongda er yuzasiga qalin shudringlar yog'iladi. Bu esa yuza qatlamdagi tuproqning yumshab suv shimuvchanligini yanada oshiradi. Mezon suvi tuproq yuza qatlamining nisbatan yumshaganligi tufayli tuproqqa oson singib ildiz joylashgan hududni etarli miqdorda nam bilan to'yintiradi va tuproqni yanada yumshatadi. Sug'orish bilan yaratilgan bunday qulay tuproq muhitida ildiz faol rivojlanadi. Mirishkor bog'bonlarning kuzatishlari va olib borishgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan ma'lum bo'lishicha mezon oyida sug'orilgan mevali daraxtlarning barg va gul kurtaklari sug'orilmagan daraxtlarnikiga nisbatan sezilarli yirik bo'lib shakllanganligini ma'lum. Asl dehqonlar mezon suvini yuqori baholab bu oyda bir marta bo'lsa ham yomg'ir yog'ishini intiqlik bilan kutishganlar [5, 6].

Olingan natijalar va ularning tahlili

Ma'lumki, yoz faslining quruq issiq muhitida suvsizlikdan qotib qolgan er namlikka to'yinishi bilan yumshay boshlaydi. Erning bunday yumshashini yilning oktyabr oyining oxiri va noyabr oyining ikkinchi yarmida yaqqol kuzatishimiz mumkin. Bu paytga kelib bog'larda barglarning to'kilishi, ya'ni xazon fasli oxiray boshlaydi. Tabiatdagi bunday ko'rinish aynan kuzgi shudgorlash tomarqa va dala hovlilarda belkurak bilan erni ag'darish payti kelganligini bildiradi. Shudgorlash kuz mavsumida o'tkaziladigan eng muhim agrotexnik tadbir bo'lib erning 30-35 sm qatlami ag'darib yumshatiladi. Shudgorlashdan oldin urug' mevali bog'lar eriga 30-40 t mahalliy, 200-250 kg atrofida fasforli va 40 kg dan kaliyli o'g'itlar solinib shudgorlansa mevali daraxtlar rivojiga yanada samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunda go'ng tuproq strukturasi tiklaydi va barqarorlashtiradi. Fosforli o'g'itlar tuproq yumshoqligi va donadorligini ta'minlaydi, kaliyli o'g'itlar esa meva elementlari to'kilishini yanada kamaytiradi. Shudgorlash bilan to'kilgan barglar, begona o'tlar, oraliq ekin qoldiqlari ag'darilgan tuproq qatlami ostida qolib bahorgacha oson to'liq chiriydi va mahalliy o'g'itga aylanib tuproq tarkibini boyitadi. Aslida daraxtlar yillik vegetatsiya davrida o'sishi va mevalari etilishi uchun tuproq tarkibidan olib o'zlashtirgan minerallar o'rnini asosiy qismini kuzda erga to'kilgan barglar chirib tuproq tarkibiga singdirilishi bilan tuproq unumdorligi qayta tiklanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra barg va xas-xashaklar chiritilganda 70 % gacha sof holdagi gumusga aylanishi aniqlangan [7, 8, 9].

Shudgorlangan, yumshatilgan tuproq qatlami bilan yumshatilmagan tuproq qatlamining zichligi bir-biridan keskin farq qilib qatlamlar bir-biridan izolyatsiyalanib erning ostki qatlamidan chiqayotgan issiqlik shudgorlanib havo bilan to'yingan qatlamga o'tishi ma'lum darajada susayib qoladi. Bunday qatlamlardagi termo farq qishning qahraton sovug'ida ustki qatlamning keskin muzlashiga olib kelib tuproqda to'liq qishki tinim davrini ta'minlaydi. Tinim davrini muzlagan holda o'tkazgan tuproq holati sezilarli quvvatlanadi, ko'p yillik begona o't ildizlari muzlab nobud bo'ladi, bahorda tuproq oson va mayin etilib keyingi

ishlovlar uchun qulay tuproq sharoiti yaratiladi. Barg va xas-xashaklarni to'plab yoqib yuborishga hech qachon yo'l qo'ymaslik kerak. Aksincha shu erning o'zida chiritib mahalliy o'g'itga aylantirishimiz kerak.

Bog'larda qurib qolgan, qayta tiklanmaydigan darajada kasallangan, shuningdek bog'ni siyraklatish maqsadida olib tashlanishi kerak bo'lgan daraxtlar aynan kuz faslida kesib va ostki qismlari kovlab olinib bog' maydonidan chiqarib tashlanadi.

Qishki sovuqdan ko'mish bilan saqlab qolinadigan tok, anor, anjir kabilar joylashgan hududlariga qarab oktyabr oyining ikkinchi yarmi va noyabr oyining birinchi yarmigacha ko'milib bo'linishi kerak. Ko'milgan tok va anjirlar o'z novdalaridagi barglar bilan ko'milsa kurtaklari juda kam shikastlanadi, eng asosiysi erta bahorgi yog'ingarchiliklardan paydo bo'lgan tuproqdagi namlik ta'siridan novdalar chirishining oldi olinadi [10]. Anor va anjir butalarining sovuqqa bardoshi tokga nisbatan past bo'lganligi sababli anor va anjir butalari chim, loy va tuproq bilan izg'irinli sovuq shamol kirishiga tirqish qoldirilmay ko'milishiga, tokning esa bir yillik novdalari to'liq tuproq ostida qolib ko'milishiga erishish kerak. Tokning o'g'it va suvga bo'lgan munosabati alohida o'zgacha bo'lib, asosan kuzda mahalliy o'g'itlarni jo'yaklariga solish bilan o'g'itlash, kuz ayniqsa qish chillasida eng kamida 4-5 marta qondirib sug'orish juda yaxshi natija beradi. O'g'itlash va sug'orish shu tariqa tashkil etilganda minerallar bilan boyigan suv butun ildiz zonasida tuproqni to'yintiradi. Bunday tuproq-suv muhitida tokni fevral – noyabr oyi oralig'ida bir marta ham sug'ormay yuqori sifatli uzum hosili etishtirish mumkin. Ayrim hollarda qishki sug'orilish miqdori va bahorning kamyog'in yozning issiq va quruq kelishiga qarab iyul oyida engil sug'orish mumkin bo'ladi [11, 12, 13].

Kuz oyining oxiri, ya'ni dehqonlar tavqimida (19 noyabrdan – 18 dekabrgacha) qavs oyi o'zining achchiq ayozlari va yog'in-sochinlari bilan qut baraka fasli kuzni qishga ulaydi. Mtadil kirib kelgan qavs oyida erning yuza qismi, ko'lmak suvlar muzlab dalalarni qalin qor qoplashi kerak. Qavs bog'dorchilikdagi muhim oy bo'lib kuzgi-qishki tadbirlarning eng asosiylari amalga oshiriladi. Bu paytga kelib havo va erning yuza qismi harorati keskin sovub sug'orish suvining erga singuvchanligi yanada faollashib boradi. Bu paytda omilkor bog'bonlar bog'lar va tokzorlarni, shuningdek shudgorlangan bahorda ekin ekiladigan erlarni ham albatta sug'orishadilar [3, 13]. Qavs suviga qongan bog' va tokzorlar yozgi suv tanqisligiga bardoshli bo'lib meva va uzumlar o'ziga xos ko'rinimli bo'lib etiladi. Qavs va qish chillasida, ya'ni yanvar oyi oxirigacha suvning er qa'riga singuvchanligi juda yuqori bo'lib qondirib sug'orilganda 10-12 m gacha kirib borib etarli suv zahirasi to'planadi. Bu sug'orishlarni ikkinchi nom bilan qishki yaxob suvi berish ham deb ataladi. Eng asosiy kech kuz-qish mavsumida daraxtlarning er ostki organlari, ya'ni ildizi namlik va ozuqa etarli muhitda faol rivojlanib shakllanadi. Sho'rlangan tuproqli erlarni sug'orish bilan yuqori qatlamdagi tuproq sho'ri chuqur qatlamlargacha suv bilan oqib tushib yuviladi [14, 15, 16]. Natijada yuqori qatlamdagi tuproqning ishqoriy muhiti va unumdorligi mo'tadillashadi.

Yuqorida aytib o'tganlarimizdan bog'dorchilikdagi eng asosiy muhim kuzgi-qishki agrotexnik tadbir o'g'itlash va sug'orish ishlarini talab darajasida amalga oshirish ekanligi ko'rinib turibdi. Biz ko'pincha qishki tinim davrida mevali daraxt va nihollarda fiziologik jarayon to'xtaydi degan xulosaga kelamiz. Aslida unday emas, olib borilgan kuzatishlar va ilmiy tadqiqodlar shuni ko'rsatadiki daraxtlarning ildizi kuz-qish faslida yanada faol rivojlanar ekan. Daraxt tanasi, shox, novdalarning oz bo'lsada yo'g'onlashganligi va o'sganligini, hamda kurtaklarning sekin-asta yiriklashib borishi kuzatilgan. Bunday o'zgarishlarni kuzda etarli

o'g'itlangan, tuprog'i yumshatilgan va tez-tez sug'orib turilgan bog'larda yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin [16]. Baza bahor va yoz faslida qurg'oqchilik ro'y berib uning qanday oqibatlar ko'rsatishga guvoh bo'lganmiz. Aslida bahorgi qurg'oqchilik kabi kuz va qishda ro'y beradigan qurg'oqchilikning ham keltiradigan oqibatlari hech kam bo'lmaydi. Kuzgi-qishki qurg'oqchilikning salbiy ta'sirini faqat kuz-qishdagi qondirib sug'orishlar bilan bartaraf etish mumkin bo'ladi. Kuz va qahraton qish davomida mevali daraxtlarga kesib shakl berish maqsadga muvofiq emas. Tokning kesib ko'milishi bundan mustasno. Qish faslining oxiri, qaysiki fevral oyining ikkinchi yarmidan navro'z ayyomigacha har qanday er sug'orish ishlarini amalga oshirish to'xtatilishi kerak bo'ladi. Bu holat shu bilan izohlanadiki aynan shu davrda er yuzasi va tashqi muhit harorati bir xillashib sug'orish suvi erga singimaydi. Sug'orish suvi tuproqni behuda zichlab, uning strukturasi buzadi. Oqibatda tuproq donadorligi yo'qolib, keyingi ishlovlarda kesak paydo bo'lishi ko'payadi va bog'larda hosil sifatli va salmog'li bo'lishiga aks ta'sir ko'rsatadi.

Xulosalar

1. Mevali bog'larni barpo etishda joyning tuproq – iqlim sharoiti va tashqi tabiiy omillar ta'sirini inobatga olish zarur.
2. Bog'dorchilikda mavsumiy agrotexnik tadbirlarni og'ishmay o'z vaqtida va talab darajasida amalga oshirib borish yuqori sifatli halqaro standartlar meyo'rlariga mos keluvchi meva mahsulotlarni etishtirishning asosiy omili hisoblanadi.
3. Mevali bog'lar parvarishining kuzgi – qishki mavsumida sug'orish ishlariga alohida e'tibor qaratish vegetatsiya davrida mevali daraxt sog'lom rivojlanishi va sifatli hosil etishtirishning eng asosiy me'zonlaridan biri sifatida qaraladi.
4. Mevali bog'larda mavsumiy agrotexnik tadbirlarni belgilangan vaqt va agrotexnik talablar me'yorida amalga oshirilib borilishi bog'lar ekalogiyasini sog'lom va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.
5. Bog'dorchilikda yuqori samaradorlikka erishish uchun barcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishni meva mahsulotlari eksportida xalqaro Organic va Global G.A.P. sifat sertifikatlariga talablariga qo'yilgan ko'rsatkichlari darajasida mahsulot etishtirishga qaratilishi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va havfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PF 5995-sonli farmoni. - www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda "Meva – sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarori PQ 4549 sonli qarori – www.lex.uz.
3. Narziqulov A. Dehqon bog'bon va chorvador tavqimi. -Toshkent "Mehnat" 1991.- 62 b.
4. R.Abdullaev, H. Abdullaeva "Bog'bon va sohibkorlar uchun qizg'in palla" O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. -Toshkent. 2020 y. 8-son 12-14 b.
5. Tursunov L. Pochvenno'e ucloviya oroshaemo'x zemel zapadnoy chasti Uzbekistana. - Tashkent: "Fan", 1981. -147 s.
6. G. Murtazaeva. "Bog' qator oralariga ishlov berish agrotexnologiyalari". Agro-ilm, – Toshkent. , 2021 y. 4 son, 18-21 b.

7. Kamshilov N.A. Prakticheskie soveto' po sadovodstvu. -Moskva «Kolos» 1971. – 303 s.
8. R.Abdullaev, H.Abdullaeva “Bog’ va tokzorlarda agrotexnik tadbirlarni o'tkazish qizg'in pallaga kirmoqda”. O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. -Toshkent. 2020 y. 5-son. 12-14 b.
9. K. Mirzajanov, A. Mannonova. Agronomicheskie osnovo' vo'sokogo urojaya. -Tashkent, 1986 g. 154 s.
10. M. To'raqulov, G. M. Mirsharipova, I.R. Raxmonov “Sirdaryo anorchiligi” uslubiy qo'llanma Guliston.-2017 – 32 b.
11. Ostanaqulov T.E., Narzieva S.X.,Mevachilik asoslari. -Toshkent; 2010. 317 s.
12. Razumov A. Vinograda: vo'rahivanie i pererabotka v domashnix usloviyax Tashkent “Uzbekistan”. 1987. 246 s.
13. Temurov Sh. Uzumchilik. –Toshkent. 2002. 207 b.
14. Gorbunov. Orashaemo'e pochvo' Sredney Azii. -Moskva: nauka. 1965. 296 s.Volobuev V.P. Promo'vka zasolennix pochv. Baku: Azerneshar, 1998. 132 s.
15. S.S. Xamraev, X. Arto'kbaeva, S.A. Azimbaev, K.S. Axmedov. Nakoplenie i vo'mo'vanie soley i ostrostrukturno'x pochv. Tashkent izd. “Fan”; 1984. 126 s.
16. F.Hasanova, I.Karabaeva, Z.Shavkatova “Tuproqning suv o'tkazuvchanligiga erga turli usulda ishlov berishning ta'siri”. O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. –Toshkent. 2020 11-son 2020 y. 38-40 b.
17. Ergashov, Azizbek, and Kumushoy Ahmadqulova. "KECH PISHAR OLMA HOSILINI SAQLASHDA XALQ USULIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA HOS AHAMIYATLARI." Евразийский журнал технологий и инноваций 1.4 (2023): 131-134.

INNOVATIVE
ACADEMY